

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
IYUN/6-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING LIKVIDLILIGINI TA'MINLASH MASALALARI.....	10
Bauyetdinov M.J.	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH STRATEGIYASI.....	18
Usmanova Zumrad Islamovna, Xasanova Yulduz Kayumovna	
TOKLI O'TKAZGICHLARDA MAGNIT MAYDON INDUKSIYASINING NAZARIY TAHLILI	23
O'ngboyev Anvar, Umarov Uyg'un, Dusiyorov Jaxongir, Jonimqulov Mirtemur	
QISHLOQ XO'JALIGIDA SUV RESURSLARINI BOSHQARISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	30
Akbarova Shaxnoza Yakub qizi	
IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA ASALARICHILIK TARMOG'I SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	33
Farmanov Jonibek Ziyadullayevich	
BILVOSITA SOLIQLARNI MA'MURIY BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	38
Mansurova Arofatxon Shavkat qizi	
BANKLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI XALQARO USULLAR VA MEZONLAR ASOSIDA BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	43
G'aybulloyev Suxrob Odil o'g'li	
IDEMPOTENT O'LCHOVLAR SIMPLEKSIDA ANIQLANGAN CHIZIQLI OPERATORLAR DINAMIKASINING EKOLOGIK MODELLASHTIRISHDAGI TATBIQI	50
Karimov Muzaffar Musaxonovich, Karimova Shalola Musayevna	
AGROTECHNICAL AND INNOVATIVE STRATEGIES FOR ENHANCING GRAIN PRODUCTION EFFICIENCY.	56
Turayeva Gulizahro	
BANKLARDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH SIFATINI OSHIRISH	60
Aseмова Rano Jabbarbergenovna	
ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ СЦЕНАРНОГО АНАЛИЗА РАЗВИТИЯ АПК.....	66
Ли Марина Рудольфовна	
POLIMER VA UGLEROD NANOTOLALI MODIFIKATORLAR ASOSIDA BITUM KOMPOZITSIYALARINING REOLOGIK, MIKROTUZILMAVIY VA ADGEZION XOSSALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING QIYOSIY TAHLILI	70
Hasanov Bahrom Bo'ronovich	
XORIJIY TADBIRKORLIK RIVOJLANISHIGA XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYANING TA'SIRI.....	76
Mamatraimov Islom Mamanazarovich	
SULFIDLI POLIMETALL RUDALARNI SELEKTIV FLOTATSIYALASHDA YANGI AVLOD REAGENTLARINI QO'LLASHNING TEXNOLOGIK YECHIMLARI TAHLILI.....	79
Xushvaqтова Zamira Hikmatulloyevna, Saidaxmedov Aktam Abdisamiyevich	
LOGICLABUZ: A BROWSER-NATIVE CO-SIMULATION PLATFORM FOR THE VIRTUALIZATION OF MULTI-MCU ROBOTIC SYSTEMS	84
Ergashev Adizbek Kamol ugli	
DUBAY IQTISODIYOTINING DIVERSIFIKATSIYALASHUV BOSQICHLARI VA UNDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	94
Dilmira Abdumalikovna Shamusarova	
MINTAQADA TIBBIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING XALQARO MODELLARI.....	99
Yusupova Mehrigon O'ktamovna	
EKONOMETRIK MODELLARNI TANLASH VA ULARNING SIFATINI BAHOLASHDA INTEGRAL MEZONNI QO'LLASH	104
Turayev Baxtiyor Ergashevich	



PHP VA SUN'YI INTELLEKT SINERGIYASI: LARAVEL ASOSIDA INTELLEKTUAL VEB-TIZIMLARNI LOYIHALASH ARXITEKTURASI.....	110
Jo'rayev To'xtasin, Abdusattarov Odiljon, Boymatov Mexrojiddin, Temirova Orifa, Yuldashboyev Shermuxammad	
CORPORATE GOVERNANCE QUALITY, FOREIGN DIRECT INVESTMENT, AND ECONOMIC GROWTH: A PANEL ECONOMETRIC ANALYSIS OF CENTRAL ASIAN COUNTRIES (2003-2024).....	119
Yusufjon Pulatov	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH VA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	129
Sheraliyev Olimjon O'ktam o'g'li	



TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH VA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Sheraliyev Olimjon O'ktam o'g'li

TDIU mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: o.sheraliyev@brb.uz

ORCID: 0009-0004-4513-6988

ANNOTATSIYA. Tijorat banklari kredit portfelini diversifikatsiya qilish va kredit risklarini boshqarishni takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari, tijorat banklarining moliyaviy hisobotlari hamda xalqaro bank amaliyoti asosida kredit portfelining tarkibi, kredit risklari darajasi va muammoli kreditlar holati tahlil qilingan. Xususan, kredit portfelining tarmoqlar, qarz oluvchilar toifalari va iqtisodiyot sohalari bo'yicha tarkibiy tuzilmasi baholanib, kredit portfelining diversifikatsiya darajasi hamda uning banklarning moliyaviy barqarorligiga ta'siri o'rganilgan.

Tadqiqot natijalari kredit portfelining yetarli darajada diversifikatsiya qilinishi kredit risklari konsentratsiyasini kamaytirish, muammoli kreditlar ulushini pasaytirish hamda banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilishini ko'rsatdi. Tadqiqot yakunida tijorat banklarida kredit portfelining diversifikatsiya darajasini oshirish, kredit risklarini kamaytirish va kredit portfeli sifatini yaxshilashga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, kredit portfeli, kredit riski, kredit portfeli diversifikatsiyasi, muammoli kreditlar, kredit portfeli sifati, risklarni boshqarish.

ABSTRACT. Issues related to credit portfolio diversification and the improvement of credit risk management in commercial banks are examined. The study analyzes the structure of credit portfolios, the level of credit risks, and the condition of non-performing loans based on data from the Central Bank of the Republic of Uzbekistan, financial statements of commercial banks, and international banking practices. Particular attention is given to the assessment of credit portfolio structures across economic sectors, borrower categories, and lending areas, as well as to evaluating the impact of portfolio diversification on banks' financial stability.

The findings indicate that adequate credit portfolio diversification contributes to reducing credit risk concentration, lowering the share of non-performing loans, and strengthening banks' financial stability. Based on the results obtained, scientific and practical recommendations have been developed to enhance the level of credit portfolio diversification, reduce credit risks, and improve the quality of commercial banks' credit portfolios.

Keywords: commercial banks, credit portfolio, credit risk, credit portfolio diversification, non-performing loans, credit portfolio quality, risk management.

АННОТАЦИЯ. Исследованы вопросы диверсификации кредитного портфеля коммерческих банков и совершенствования управления кредитными рисками. На основе данных Центрального банка Республики Узбекистан, финансовой отчётности коммерческих банков и международной банковской практики проведён анализ структуры кредитного портфеля, уровня кредитных рисков и состояния проблемных кредитов. Особое внимание уделено оценке структуры кредитного портфеля по отраслям экономики, категориям заёмщиков и направлениям кредитования, а также влиянию уровня диверсификации кредитного портфеля на финансовую устойчивость банков.

Результаты исследования показали, что достаточная диверсификация кредитного портфеля способствует снижению концентрации кредитных рисков, уменьшению доли проблемных кредитов и укреплению финансовой устойчивости банков. По итогам исследования разработаны научно-практические рекомендации, направленные на повышение уровня диверсификации кредитного портфеля, снижение кредитных рисков и улучшение качества кредитного портфеля коммерческих банков.

Ключевые слова: коммерческие банки, кредитный портфель, кредитный риск, диверсификация кредитного портфеля, проблемные кредиты, качество кредитного портфеля, управление рисками.

KIRISH

Bank tizimi iqtisodiyotning moliyaviy resurslarini samarali taqsimlash va investitsion jarayonlarni qo'llab-quvvatlashda muhim o'rin egallaydi. Tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan kredit operatsiyalari esa bank faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kredit operatsiyalarining kengayishi banklar faoliyatida kredit risklarining ortishiga ham sabab bo'ladi. Mazkur holat kredit portfelining sifati va tarkibini samarali boshqarish masalalarining dolzarbligini yanada oshirmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston bank sektorida kreditlash hajmlarining sezilarli darajada o'sishi kuzatilmoqda. Banklar tomonidan iqtisodiyotning turli tarmoqlarini moliyalashtirish ko'lamining kengayishi bilan bir qatorda, kredit portfeli tarkibining muayyan tarmoqlar yoki yirik qarz oluvchilar kesimida konsentratsiyalashuvi bilan bog'liq risklar ham ortib bormoqda. Kredit portfelining yetarli darajada diversifikatsiya qilinmaganligi ayrim iqtisodiy tarmoqlarda yuzaga keladigan holatlarning banklar moliyaviy barqarorligiga ta'sirini kuchaytirishi mumkin.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, kredit portfelini diversifikatsiya qilish bank risklarini kamaytirishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Kreditlarning turli iqtisodiy tarmoqlar, hududlar, faoliyat yo'nalishlari va qarz oluvchilar toifalari bo'yicha oqilona taqsimlanishi kredit risklari konsentratsiyasini pasaytiradi, muammoli kreditlar ulushini kamaytiradi hamda banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi. Shu sababli, kredit portfeli tarkibini optimallashtirish va kredit risklarini samarali boshqarish masalalari xalqaro moliya institutlari hamda bank nazorati organlari tomonidan ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Bazel bank nazorati qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro standartlarda kredit risklarini boshqarish va kredit portfeli konsentratsiyasini cheklash banklar barqarorligini ta'minlashning muhim shartlaridan biri sifatida qaraladi. Xususan, kredit portfelining muayyan tarmoqlar yoki yirik mijozlar guruhlariga haddan tashqari yo'naltirilishi bank tizimi uchun tizimli risklarni yuzaga keltirishi mumkinligi ta'kidlanadi. Shu nuqtai nazardan, kredit portfelining diversifikatsiya darajasini oshirish va kredit risklarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zamonaviy bank menejmentining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, O'zbekiston bank tizimida kreditlash hajmlarining o'sib borishi sharoitida kredit portfelining tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish, risklar konsentratsiyasini kamaytirish va kredit portfeli sifatini yaxshilashga qaratilgan ilmiy-amaliy yondashuvlarni ishlab chiqish zarurati ortib bormoqda. Kredit portfeli diversifikatsiyasining banklar moliyaviy barqarorligiga ta'sirini chuqur o'rganish va ushbu yo'nalishda samarali boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish ilmiy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi tijorat banklari kredit portfelini diversifikatsiya qilishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish, kredit risklarini boshqarish tizimining samaradorligini baholash hamda kredit portfeli sifatini yaxshilashga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining kredit portfeli va kreditlash faoliyati tanlangan. Tadqiqot predmeti esa kredit portfelini diversifikatsiya qilish va kredit risklarini boshqarish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklari faoliyatida kredit operatsiyalari asosiy daromad manbalaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, kredit operatsiyalari banklar faoliyatida eng yuqori risk darajasiga ega yo'nalish sifatida e'tirof etiladi. Kredit portfelining sifati va tarkibi banklarning moliyaviy barqarorligi, likvidligi hamda rentabelligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, kredit portfelini samarali boshqarish va diversifikatsiya qilish masalalari iqtisodchi olimlar hamda xalqaro moliya institutlari tomonidan keng o'rganib kelinmoqda.

Bank kreditlashining nazariy asoslari Mishkin (2022) tomonidan moliyaviy vositachilik nazariyasi doirasida tadqiq etilgan bo'lib, muallif kreditlash iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, banklarning kredit siyosati va kredit portfeli sifati moliyaviy tizimning barqaror faoliyat yuritishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Rose va Hudgins (2021) kredit portfelini bank aktivlarining eng muhim tarkibiy qismi sifatida baholab, kredit portfelining diversifikatsiyalashgan tarkibi bank risklarini kamaytirish va moliyaviy natijalarni yaxshilash imkonini berishini qayd etadi. Mualliflarning fikricha, kredit portfelining alohida tarmoqlar yoki yirik qarz oluvchilarga yuqori darajada konsentratsiyalashuvi banklar uchun qo'shimcha risklarni yuzaga keltirishi mumkin.

Kredit portfelini diversifikatsiya qilishning nazariy asoslari Markowitz (1952) tomonidan ishlab chiqilgan portfel nazariyasiga borib taqaladi. Mazkur nazariyaga ko'ra, aktivlarni turli yo'nalishlar bo'yicha taqsimlash risklarni kamaytirish va kutilayotgan daromadlilikni optimallashtirish imkonini beradi. Keyinchalik ushbu yondashuv bank kredit portfellari tarkibini shakllantirishda ham keng qo'llanila boshladi.

Kredit risklarini boshqarish masalalari Saunders va Cornett (2021) tomonidan batafsil o'rganilgan bo'lib,



ular kredit portfeli sifati, muammoli kreditlar ulushi va risklar konsentratsiyasi banklarning moliyaviy barqarorligini belgilovchi asosiy omillar ekanligini ta'kidlaydi. Mualliflarning fikricha, kredit portfelini muntazam monitoring qilish va kredit risklarini baholash tizimlarini takomillashtirish banklar faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kreditlash jarayonida axborot nomutanosibligi muammolari Stiglitz va Weiss (1981) tomonidan tadqiq etilgan. Ularning tadqiqotlari kreditlash jarayonida qarz oluvchilar to'g'risidagi ma'lumotlarning yetarli emasligi kredit risklarining ortishiga sabab bo'lishini ko'rsatgan. Shu bois, kredit risklarini boshqarishda qarz oluvchilarning moliyaviy holatini chuqur tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bank sektorida kredit risklarini boshqarish va konsentratsiya risklarini cheklash masalalari Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro standartlarda ham alohida o'rin egallaydi. Basel Committee on Banking Supervision (2019) kredit portfeli tarkibini muntazam monitoring qilish, yirik qarz oluvchilarga to'g'ri keladigan risklarni cheklash va kredit portfelining diversifikatsiya darajasini oshirishni tavsiya etadi. Ushbu yondashuvlar banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Jahon banki va Xalqaro Valyuta Jamg'armasi tadqiqotlarida ham kredit portfelining yuqori darajada konsentratsiyalashuvi bank tizimi uchun tizimli risklar manbai bo'lishi mumkinligi qayd etilgan. Ularning fikricha, iqtisodiyot tarmoqlari, hududlar va qarz oluvchilar toifalari kesimida kredit portfelini diversifikatsiya qilish kredit risklarini boshqarishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi (World Bank, 2024; IMF, 2024).

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, xorijiy ilmiy adabiyotlarda kredit portfelini diversifikatsiya qilish va kredit risklarini boshqarish masalalari keng yoritilgan bo'lsa-da, O'zbekiston tijorat banklarida kredit portfeli tarkibining diversifikatsiya darajasi va uning kredit risklariga ta'sirini kompleks baholashga qaratilgan tadqiqotlar yetarli darajada rivojlanib bormoqda. Shu sababli, mazkur tadqiqot kredit portfeli diversifikatsiyasining banklar moliyaviy barqarorligi va kredit portfeli sifatiga ta'sirini baholash nuqtai nazaridan ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tijorat banklari kredit portfelini diversifikatsiya qilish va kredit risklarini boshqarish holatini baholash uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklarining moliyaviy hisobotlari, statistik ma'lumotlar hamda ilmiy adabiyotlardan foydalanildi. Ma'lumotlarni yig'ishda kuzatish, hujjatlarni o'rganish va ikkilamchi ma'lumotlarni tahlil qilish usullari qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida kredit portfelining tarmoqlar, hududlar, mijozlar segmentlari va kredit turlari bo'yicha tarkibi o'rganildi. Olingan ma'lumotlarni tahlil qilishda qiyosiy tahlil, statistik tahlil, guruhlash, dinamik qatorlar tahlili hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, kredit portfelining diversifikatsiya darajasi va kredit risklari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash maqsadida mantiqiy tahlil va iqtisodiy tahlil usullari qo'llanildi. Natijalar asosida kredit portfelini optimallashtirish hamda kredit risklarini samarali boshqarishga oid ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida O'zbekiston tijorat banklari kredit portfelining tarkibi va diversifikatsiya darajasi tahlil qilindi. Tahlil natijalari kredit portfelining umumiy hajmi o'sib borayotganligini, biroq ayrim segmentlar va tarmoqlar bo'yicha kreditlar konsentratsiyasi saqlanib qolayotganligini ko'rsatdi. Kredit portfelining tarkibiy tuzilmasini o'rganish kredit risklarini boshqarish va portfel diversifikatsiyasini baholash imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval

Tijorat banklari kredit portfelining kreditlash turlari bo'yicha tarkibi (mlrd so'm)¹

Ko'rsatkichlar	01.01.2026	01.05.2026	O'zgarish, %
Jami kreditlar	604 002	628 999	4,1
Jismoniy shaxslarga kreditlar	220 283	230 776	4,8
Shu jumladan: ipoteka kreditlari	79 396	83 869	5,6
Mikroqarzlar	48 863	50 099	2,5
Mikrokreditlar	40 474	44 361	9,6
Avtokreditlar	39 696	39 659	-0,1
Ta'lim kreditlari	6 932	6 924	-0,1

1 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Iste'mol kreditlari	492	515	4,7
Boshqa kreditlar	4 430	5 348	20,7
Yuridik shaxslarga kreditlar	383 720	398 224	3,8
Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar	359 777	373 218	3,7
Lizing va faktoring	3 842	4 366	13,6
Banklararo kreditlar	653	848	29,9
Mikrokreditlar	14 680	15 353	4,6
Sinditsiyalashgan kreditlar	4 768	4 438	-6,9

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yilning dastlabki to'rt oyi davomida bank tizimining jami kredit portfeli 604,0 trln so'mdan 629,0 trln so'mga oshib, 4,1 foizga o'sgan. Kredit portfelinin asosiy qismi yuridik shaxslar hissasiga to'g'ri kelib, ularning ulushi 63 foizdan yuqori darajada shakllangan. Bu holat bank kreditlarining sezilarli qismi korporativ sektorni moliyalashtirishga yo'naltirilayotganligini ko'rsatadi.

Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar 4,8 foizga oshib, 230,8 trln so'mga yetgan. Ushbu segmentda eng yuqori ulush ipoteka kreditlariga to'g'ri kelib, ular 83,9 trln so'mni tashkil etgan. Shu bilan birga, mikrokreditlar hajmining 9,6 foizga oshishi aholi va kichik biznesni moliyalashtirish hajmi kengayib borayotganligini ko'rsatadi. Boshqa kreditlar segmentida 20,7 foizlik o'sish kuzatilgan bo'lsa, avtokreditlar va ta'lim kreditlari hajmida deyarli o'zgarish kuzatilmagan.

Yuridik shaxslar segmentida lizing va faktoring operatsiyalarining 13,6 foizga, banklararo kreditlarning esa 29,9 foizga o'sgani kuzatilmoqda. Bu moliyalashtirish vositalarining diversifikatsiyalashayotganligini ko'rsatsa-da, sinditsiyalashgan kreditlar hajmining qisqarishi yirik loyihalarni birgalikda moliyalashtirish amaliyotini yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi (2-jadval).

2-jadval

Tijorat banklari kreditlarining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha tarkibi²

Tarmoqlar	01.05.2025 (mlrd so'm)	Ulushi, %	01.05.2026 (mlrd so'm)	Ulushi, %	O'zgarish, %
Jami kreditlar	565 568	100	628 999	100	11
Sanoat	159 602	28	137 486	22	-14
Qishloq xo'jaligi	56 123	10	65 368	10	16
Qurilish	14 484	3	20 792	3	44
Savdo va umumiy xizmatlar	39 465	7	47 359	8	20
Transport va kommunikatsiya	33 488	6	33 842	5	1
Moddiy-texnika ta'minoti va savdo	3 679	0,7	4 531	0,7	23
Uy-joy kommunal xizmatlari	2 064	0,4	1 881	0,3	-9
Jismoniy shaxslar	190 409	34	230 776	37	21
Boshqa tarmoqlar	66 255	12	86 966	14	31

2-jadval natijalari kredit portfelinin tarmoqlar bo'yicha diversifikatsiya darajasini baholash imkonini beradi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2026-yil 1-may holatiga kredit portfelinin eng katta ulushi jismoniy shaxslar (37 foiz) va sanoat tarmog'i (22 foiz) hissasiga to'g'ri kelmoqda. Ushbu ikki segment jami kredit portfelinin qariyb 60 foizini tashkil etadi.

E'tiborlisi, sanoat tarmog'ining ulushi bir yil davomida 28 foizdan 22 foizgacha kamaygan. Bu esa kredit portfelinin konsentratsiya darajasining pasayishi va tarmoqlar bo'yicha diversifikatsiya kuchayib borayotganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi, savdo va xizmatlar hamda qurilish tarmoqlariga ajratilgan kreditlarning sezilarli o'sishi kuzatilgan.

Qurilish sohasidagi kreditlarning 44 foizga oshishi banklarning mazkur tarmoqqa bo'lgan e'tibori ortib borayotganligini ko'rsatadi. Kreditlarning ayrim tarmoqlarda yuqori sur'atlarda o'sishi ushbu yo'nalishlarda risklarni monitoring qilish va muvozanatli rivojlanishni ta'minlash zaruratini kuchaytiradi. Shu sababli, kredit portfelinin shakllantirishda tarmoqlar kesimida muvozanatli yondashuvni saqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

2 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



Jismoniy shaxslar kreditlarining 21 foizga o'sishi retail kreditlash segmentining jadal rivojlanayotganligini ko'rsatmoqda. Bu esa banklar daromadlilikini oshirish bilan birga, kredit risklarini ko'plab qarz oluvchilar o'rtasida taqsimlash imkonini beradi.

Umuman olganda, o'tkazilgan tahlillar O'zbekiston tijorat banklari kredit portfelida diversifikatsiya jarayonlari kuchayib borayotganligini ko'rsatadi. Sanoat sektorining ulushi qisqarib, boshqa tarmoqlar va retail kreditlash segmentining ulushi ortib bormoqda. Shu bilan birga, kredit portfelining ayrim tarmoqlar va qarz oluvchilar segmentlarida yuqori darajada jamlanganligi kredit risklarini muntazam monitoring qilish zarurligini ko'rsatadi. Shuning uchun kredit portfelining tarmoq, hudud va qarz oluvchilar toifalari kesimida yanada muvozanatli taqsimlanishini ta'minlash kredit risklarini kamaytirish va banklar moliyaviy barqarorligini mustahkamlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotda tijorat banklari kredit portfelini diversifikatsiya qilish va kredit risklarini boshqarishni takomillashtirish masalalari o'rganildi. O'zbekiston Respublikasi bank sektorining kredit portfeli tarkibi va dinamikasini tahlil qilish natijasida kreditlash hajmlarining barqaror o'sib borayotganligi, kredit portfelining iqtisodiyotning turli tarmoqlari va qarz oluvchilar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hamda kredit risklari konsentratsiyasining ayrim yo'nalishlarda saqlanib qolayotganligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari 2026-yilning dastlabki oylarida bank tizimining jami kredit portfeli 4,1 foizga oshganligini ko'rsatdi. Kredit portfelining asosiy qismini yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar tashkil etayotgan bo'lsa-da, jismoniy shaxslarni kreditlash hajmining ham sezilarli darajada o'sishi kuzatilmoqda. Ayniqsa, ipoteka kreditlari, mikrokreditlar va chakana kreditlash segmentining rivojlanishi kredit portfelini diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Tarmoqlar kesimida o'tkazilgan tahlillar kredit portfeli tarkibida muayyan ijobiy o'zgarishlar yuz berayotganligini ko'rsatdi. Xususan, sanoat tarmog'ining kredit portfelidagi ulushi 28 foizdan 22 foizgacha qisqargan bo'lsa, savdo va xizmatlar, qishloq xo'jaligi, qurilish hamda boshqa tarmoqlarning ulushi ortgan. Mazkur holat kredit portfelining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha nisbatan muvozanatli taqsimlanayotganligini va diversifikatsiya darajasi oshib borayotganligini anglatadi.

Shu bilan birga, kredit portfelining sezilarli qismi ayrim yirik tarmoqlar va qarz oluvchilar segmentlarida jamlanganligi kredit risklarini muntazam monitoring qilish zarurligini ko'rsatadi. Bunday holat iqtisodiyotning alohida tarmoqlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan omillarning banklar kredit portfeli sifatiga ta'sirini baholash zaruratini kuchaytiradi. Shu sababli, kredit portfelini shakllantirishda tarmoqlar, mijozlar toifalari va kredit mahsulotlari kesimida muvozanatli yondashuvni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, tijorat banklarida kredit portfeli sifatini yaxshilash va kredit risklarini kamaytirish maqsadida quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

- kredit portfelining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha diversifikatsiya darajasini oshirish;
- yirik qarz oluvchilar va alohida tarmoqlarga to'g'ri keladigan kreditlar ulushini maqbullashtirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash hajmini kengaytirish;
- chakana kreditlash va mikromoliyalashtirish instrumentlarini rivojlantirish;
- kredit portfeli tarkibini muntazam monitoring qilish va konsentratsiya risklarini baholash tizimini takomillashtirish.

Umuman olganda, kredit portfelining samarali diversifikatsiya qilinishi kredit risklari darajasini pasaytirish, muammoli kreditlar ulushini cheklash, banklar moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda kredit operatsiyalarining uzoq muddatli samaradorligini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu bois, kredit portfeli tarkibini optimallashtirish va kredit risklarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish O'zbekiston tijorat banklari faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Basel Committee on Banking Supervision. (2019). *Basel III: Finalising Post-Crisis Reforms*. Bank for International Settlements.
2. International Monetary Fund. (2024). *Global Financial Stability Report 2024*. Washington, DC: IMF.
3. Markowitz, H. (1952). Portfolio selection. *The Journal of Finance*, 7(1), 77–91. <https://doi.org/10.1111/j.1540-6261.1952.tb01525.x>
4. Mishkin, F. S. (2022). *The Economics of Money, Banking, and Financial Markets* (13th ed.). Pearson Education.
5. Rose, P. S., & Hudgins, S. C. (2021). *Bank Management and Financial Services* (10th ed.). McGraw-Hill Education.
6. Saunders, A., & Cornett, M. M. (2021). *Financial Institutions Management: A Risk Management Approach* (10th ed.). McGraw-Hill Education.
7. Stiglitz, J. E., & Weiss, A. (1981). Credit rationing in markets with imperfect information. *The American Economic Review*, 71(3), 393–410.



8. World Bank. (2024). *World Development Report 2024: Finance and Development*. Washington, DC: World Bank.
9. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). *Bank tizimi barqarorligi sharhi*. Toshkent: Markaziy bank.
10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). *Bank sektorining kredit portfeli va muammoli kreditlar bo'yicha statistik ma'lumotlari*. Toshkent: Markaziy bank.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100